

**DANIYEL DEFONING “ROBINZON KRUZO” ASARI VA
UNDAGI BADIY OBRAZLAR HAQIDA**

Hakimova Mahliyo

Navoiy Davlat Pedagogika institutining 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Daniel Defoning Robinzon Kruzo asari xaqida bo‘lib, asar boshqahramon nomi bilan atalgan. Kitob 1719-yilda roman shaklida ingliz tilida nashrqilingan. Asarda 28 yoshli, Yorklik dengizchi Robinzon Kruzoning boshidan kechirgan qiziqarli sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Baxtga qarshi u o‘tirgan kema xalokatgauchraydi,kemadagi ekipajdagilardan faqatgina u tirik qoladi. Roman qahramoni Robinzon kruzo sarguzashtlari bilan barchamizni o‘ziga jalb qiladi.U yiqilaveradi tabiat bilan kurashishda davom etadi lekin injiq tabiat uni oroldan ketkazishni istamaganidek,u bilan hazillashadi shekilli uni shu orolda jon saqlashga majbur qiladi.

Kalit so’zlar: sarguzasht, orol, dengiz, kema, bug’doy.

Bu mashhur asarni o‘qimagan inson bo‘lmasa kerak. Bolalik davrimda ilk bora uni o‘qigach, men ham Robinzonga aylanib olgan edim. Qishloqqa buvimlarnikiga borib qolsam, dala shiyponi atrofidagi tutzorlarga borib o‘zimcha robinzonlik qilar edim. Ammo mening bu “kimsasiz” oroldagi hayotim nari borsa ikki soat davom etardi xolos. Keyinchalik ulg‘aygach, o‘qishni bitirib juda ko‘p tarixiy davrlar haqida ma’lumotlar olganimdan keyin ushbu asarni o‘qiganimda, unda shunchaki qiziqarli sarguzasht emas, balki juda katta ijtimoiy muammolar va shaxsning jamiyatdagi o‘rni bo‘yicha deyarli falsafiy traktat o‘qiganday bo‘lganman.

Daniel Defo Daniyel Defo tahminan qilishlaricha 1659—1661 yillarda Londonda tavallud topgan — 1731-yil 24-aprelda Londonda vafot etgan Ingliz buyuk yozuvchisi va jurnalisti. O‘zining “Robinson Crusoe“ 1719-yil shoh asari bilan dunyoga mashhur bo‘ldi. Daniel Defoe bu asari bilan ingliz romanchiligiga katta hissa qo‘shtigan. Sarguzasht romanlari ham qiziqarli tafsilotlarga boy. Jahonadabiyotida "Robinzon Kruzo" romaniga taqlidan juda ko‘p asarlar yaratilgan. Bu roman Yo‘ldosh Shamsharov tarjimasida o‘zbek tilida bir necha bor nashr etilgan.

Hammamiz bilamizki, “Robinzon Kruzo” faqat bolalar emas, balki kattalar ham sevib o‘qiydigan badiiyat durdonalari sirasiga kiradi. Shunisi e’tiborlik, Angliya ma’rifatparvarlari g‘oyalari Germaniya ma’rifatchiligi bilan mushtarak holda rivojlangan. Buni buyuk nemis shoiri Gyote ijodida ham ko‘ramiz. Daniel Defo o‘z

zamonasi, o‘z sinfining vakili sifatida davr g‘oyalarini badiiy ifodalab berdi. Yozuvchi o‘z zamondoshlari ilg‘or dunyoqarashlarining jarchisi sifatida maydonga chiqdi.¹

Robinzonning kimsasiz oroldagi hayoti, yaratuvchi insonga xos topqirligi, mardligi, irodasi, mashaqqatlarni yengish azoblari romanda katta badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Asar mehnat madhiyasidek jaranglaydi. Aynan mana shu iste’dodi bois Robinzon Kruzo o‘z insonligini saqlab qoladi. Bu adabiy qahramonning jozibadorligi, ibratli fazilatlari va tarbiyaviy ahamiyati aynan mana shunda. Romanda aniq voqealarning badiiyatga mohirona yo‘g‘rilganligi yozuvchining ijodiy yutug‘idir. Mehnat – Robinzonning tang ahvolga tushib qolganida, o‘ta qiyin sharoitlarda kimsasiz orolda yillar davomida odamiylik qiyofasini saqlab qola bilishdagi bosh omil sifatida ko‘rsatiladi.

“Robonzon Kruzo” asari sarguzasht asar bo‘lib bu kitobni o‘qishni boshlaganingizdan sizga illiq tasurotlar uyg‘otadi, yani yiqlilib qayta turishni, yengilsangiz yana qaytadan hayotni boshidan boshlasa bo‘ladi, insonni qo‘lidan keladi, harakat qilsa hamma oldingizga qo‘ygan maqsadlarga erishssa bo‘ladi degan jumlalar kelib chiqadi menimcha.Robinzon orolga tushar ekan, u yerda hechkimni hayoliga kelmagan narsalarda o‘ziga kerakli anjomlar yasaydi. Qiyin bo‘lishiga qaramasdan, eng katta daraxtni yiqitib kema yasab ko‘radi. Lekin u kemani dengizga olib chiqishni bir kishi eplay olmaydi. Shunda ham qahramonimiz to‘htab qolmaydi, kema dengizga bormasa dengizni kemani oldiga olib kelaman deb katta ariq qaziydi, lekin yana tabiyatga qahramonimiz yengiladi chunki ariq yo‘lidan qazib bo‘lmaydigan katta tosh chiqadi.Asar shunday boshlanadi. “Men bolalik chog‘imdanoq dengizni olamdagি hamma narsadan ham yaxshi ko‘rib qoldim. Uzoq safarga jo’nab ketayotgan har birmatrosga hasad qildim Bir necha soatlab dengiz bo‘yida tunab o’tib ketayotgan kemalarga ko‘z uzmay qarab qolardim.Mening bu qiling‘im ota-onamga sira yoqmadи. Keksa, dardchil otam, mening katta amaldor bo‘lishimni, qirol mahkamasida xizmat qilib, katta maosh olishimni istar edi. Men esa dengiz bo‘lishni orzu qilar edim. Dengiz va okeanlarda kezib yurish nazarimda buyuk bir baxt edi”².

Asarda Robinzonning otasi o‘g’lini kemaga minib orolga ketisini xoxamasdi. Xuddi o‘g’lining taqdirini bilganday ”kimsasiz joylarda, vatandan yiroqda qiynalasan, dardingni aytish uchun biron bir dost topolmaysan” mazmunidagi gaplarni aytadi. Robinzon orolga borib bekor o‘tirmadi. U bunday kimsasiz, odam oyog‘I yetmaydigan orolda o‘zi yolg‘iz qiyinchilikdan o‘zini o‘ldirsa ham bo‘lardi lekin u hayoti uchun tabiat bilan kurashdi va buni uddasidan chiqdi deb o‘ylayman. U echkini qo‘lga o‘rgatdi, o‘zi uchun bug‘doy yetishtirdi. Echkilarni ko‘paytirib hohlagan paytida sut ichadigan, go‘sht yeydigan bo‘ldi. O‘zi uchun kiyim tikdi, charx yasadi meni

¹ Zyouz.com

² Daniyel Defo “Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzaschlari” 2019- yil

etiborimni tortgan kashviyotlaridan biri charx bo‘lgan. Charxni yasash va pichoqlarni charxab ishlatishi uni, aqli zaif inson emas, uncha muncha narsalarga aqli yetadigan aqli inson ekanligini ko‘rsatadi. Jumavoyga to‘xtaladigan bo‘lsak Jumavoy o‘zi odamxo‘rlardan bo‘ladi lekin Robinzon uni tarbiya qiladi u insonni butunlay o‘zgartirib yuboradi bu ishlari taxsinga sazovardir bu kitobdan ibrat oladigan jixatlar juda ko‘p.

Daniel Defo Robinzon Kruzo asari bilan adabiy boqiylikka erishdi. U bu asar bilan o‘z davrining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holatiga qarshi chiqishga jur’at etdi. Asarda umuman jamiyatsiz utopik muhitni tasvirlab, Defo Angliya jamiyatining siyosiy va iqtisodiy jihatlarini tanqid qiladi. Kruzo – har bir o‘quvchi o‘zini uni o‘rniga qo‘yib ko‘rishi mumkin bo‘lgan shaxsga aylandi. Shu orqali, Defo bizni uzoq orollarni va inson ruhiyatining yolg‘izligini ko‘rishga safarbar qiladi.³

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Robinzon baxtsiz vaziyatga nisbatan optimistik nuqtai nazarni shakllantirish uchun rivojlanadi va shu tariqa o‘zi uchun ham aqliy, ham jismoniy jihatdan bir yetuk obraz yaratadi. Bu asar hozirda kutubxonalarning bolalar bo‘limida tursa-da, aslida o‘z ichida juda katta ijtimoiy muhitni saqlaydi. Asar haqida qiziqarli faktlardan biri bu ingliz romanchiligi tarixidagi ilk to‘liq roman deb hisoblanadi va Robinzon Kruzo haqida 22 dan ortiq film ishlangan.

REFERENCES

1. Daniyel Defo “Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari” 2019- yil
2. WWW.ADABIYOT SO’Z SAN’ATI
3. WWW.ZIYOUZ.COM
4. <https://daryo.uz/2020/02/10/ochlik-hatto-sherlarni-ham-yuvosh-qilib-qoyadi-robinzon-kruzo-romani-haqida>

³ <https://daryo.uz/2020/02/10/ochlik-hatto-sherlarni-ham-yuvosh-qilib-qoyadi-robinzon-kruzo-romani-haqida>